Agrar sohani rivojlantirishda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini ish bilan bandlik darajasini oshirish kabi dolzarb masalalarni hisobga olib, oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Albatta, agrar sohani rivojlanishida tabiiy omillar ta'siri yuqori ekanligi, yer va suv bilan bog'liq bo'lgan omillar ta'sirini hisobga olishni taqozo etadi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarga dars mashg'ulotlarini olib borayotgan professor-o'qituvchilar tomonidan mehnat bozorida kuchli raqobat muhiti shakllanganligini ta'kidlashi muhim hisoblanadi. Ayniqsa, agrar soha uchun kadrlar tayyorlayotgan oliy ta'lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari o'rtasida hamkorlik ishlarini jadallashtirish, agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, inson resurslarini rivojlantirish va uning salohiyatidan samarali foydalanish, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish, hududlarni rivojlantirish istiqbollarini hisobga olgan holda ilg'or xorijiy tajriba va agrotexnologiyalar bo'yicha yetarli bilim va malakalarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash hamda kafolatli mehnat bozorini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-iyuldagi "Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-216-sonli qarori qabul qilindi [1]. Mazkur qaror bilan Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash hamda uning samaradorligini oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ham tasdiqlandi hamda agrar oliy ta'lim muassasalarini samarali boshqarishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, agrar sohada ilm-fan-ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish, hududlarni rivojlantirish istiqbollarini hisobga olgan holda ilg'or xorijiy tajriba va agrotexnologiyalar bo'yicha yetarli bilim va malakalarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida OO'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyuldagi "Agrar ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4795-son qarori [2], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-dekabrdagi 788-son "Agrar ta'lim tizimining 2030-yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi [3] qarorida belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish orqali qishloq xo'jaligi sanoat darajasiga olib chiqish hamda sohaga yuqori malakali tayyorlash bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

N.Kononets ham o'z izlanishlarida oliy ta'lim tizimida axborot texnologiyalarni tadbiq etish va internet tizimidan foydalanish kerakli ma'lumotlarni onlayn tarzda olish imkonini sayt yaratishga imkon beruvchi resurslarni egallashi lozimligini ko'rsatib o'tgan [4]. Bizning fikrimizcha, ta'lim tizimida kompyuter bilan integratsiyalashgan kurslarni yaratish, o'qituvchi va talabalar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini raqamlashtirish, elektron kutubxonalar, ma'lumotlarni tahlil qilish, saqlash, qimmatlilik darajasini farqlay olish ko'nikmalarini shakllantirish kadrlarga quyiladigan talablarning asosini ta'minlash imkoniyati ta'lim tizimining o'zida shakllanishiga zamin yaratilar edi.

S.Engler va M.Kretzer o'z tadqiqotlarida ta'limni olishda ijtimoiy, iqtisodiy himoya zarurligi, qishloq xo'jaligida ta'lim jarayonlarini olib borishda kundalik hayotda mavjud muammolar bilan uzviy bog'lash hamda rivojlangan qishloq xo'jaligi malakatlari bilan taqqoslash muhim qadam hisoblanadi [5]. Umuman olganda bu fikrdan kelib chiqib tahlil qiladigan bo'lsak, rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jaligini ta'lim bilan bog'lash, iqlim sharoitimizga mos texnologiyalarni tahlil qilib borsak, kadrlarda shu orqali ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyat yaratilar edi.

Shuningdek, ta'lim tizimida malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalari jozibadorligini oshirish va boshqa masalalari bo'yicha mamlakatimiz iqtisodchi olimlari ham ta'lim tizimini rivojlantirish, mavjud muammolar va ularning yechimlari bo'yicha o'z tadqiqotlarini olib borishgan.

Jumladan, O.S.Qahhorov o'z ilmiy izlanishlarida iqtisodiyot kafedralari boshqaruv jarayoni samaradorligining integral baholash uslubini hamda kadrlar tayyorlashning boshqaruv samaradorligi va ularning iqtisodiyotga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, kasb-hunar ta'lim tizimi bitiruvchilarini ishga joylashtirish, oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi bo'yicha iqtisodiy faol aholining yalpi hududiy mahsulotga ta'siri hisoblab chiqilgan [6]. Fikrimizcha, boshqaruvda kadrlar tayyorlashni asosiy vazifa qilib belgilansa, ularni ishga joylashtirilishi, sohalar bo'yicha hududlar talabi o'rganilishi natijasida ta'lim tizimidagi asosiy muammolarni vazirliklar, ishlab chiqarish korxonalari, xalqaro grant loyihalar hamda oliy ta'lim muassasalari bilan bog'langan holda yechim topish imkoniyati yaratilar edi. Shu bilan bir qatorda ta'lim tizimini asosiy negizida mutaxassislik kafedralari yotganligi soha uchun boshqaruv tizimini yaratilishida va kadrlar uchun qo'yilgan talablar kafedralarga asosiy ma'sulyatning tushushi, oliy ta'limda boshqaruv negizida kafedralarning o'rni yuqori ekanligini ko'rsatib beradi. Shu bois,

kafedra va talabalar o‘rtasida aloqalarni uzviy bog‘lash mexanizmini yaratish va ularni moddiy-ma’naviy qo‘llab quvvatlash zarur hisoblanadi.

Shuningdek, T.Z.Teshabayev ham o‘z ilmiy izlanishlarida ta’lim tizimini boshqarishda klaster yondoshuvini joriy etish, strategik maqsadlar asosida ichki innovatsion salohiyatni ta’lim jarayoniga to‘liq jalb etish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning uslubiy yondashuvi davlat boshqaruvi takomillashuviga uyg‘un holda oliy ta’lim tizimining o‘zaro bog‘liqligini aniqlash bo‘yicha o‘z takliflarini ishlab chiqqan [7]. Bizning fikrimizcha, ta’lim tizimida boshqaruvda innovatsiyani kiritish, tizimni raqamlashtirish orqali ta’lim sifatini yaxshilash, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish, zamonaviy ilm-fan texnologiyalarini qo‘llash shu bilan bir qatorda talabalarda mustaqil fikr mulohaza yuritishni shakllantirish imkoni paydo bo‘ladi.

A.O.Ochilov o‘z tadqiqotida zamonaviy innovatsion iqtisodiyotda menejment tamoyiliga muvofiq “Butun umr davomida ta’lim” (“life-learning”) konsepsiyasiga o‘tish va ta’lim tizimida fanlar sonini optimallashtirish, OTMlarida o‘qish muddatini bir yilga qisqartirish asosida bakalavrlar va magistrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish, oliy ta’lim sifatini oshirishni boshqarishning ko‘p bosqichli modeli taklif etilgan [8]. Fikrimizcha, tajriba va joriy etish mexanizmining tenglikda qo‘llanilishi ta’lim tizimini isloh qilish bilan bir qatorda uning rivojlanishiga yo‘l ochib beradi. Shu bois, rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi ostida mamlakatimizga mos ta’lim tizimini qo‘llashimiz kadrlar tayyorlashda ularning sifatini, bilimini, dunyoqarashini oshirishga zamin yaratiladi.

J.O.Kucharov o‘z ilmiy izlanishlarida qishloq xo‘jaligida talab etiladigan kadrlar soni me’yorlarini aniqlash uslubi mehnatning intensivligi, mehnat unumdorligi va mehnat tejamkor texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini hisobga olish, qishloq xo‘jaligida malakali kadrlarni tayyorlash, fan-ta’lim va amaliyot integratsiyasini ta’minlashni davlat tomonidan soliq, moliya va kredit dastaklari hamda autstaffing xizmatlarini rivojlantirish orqali rag‘batlantirish, agrar ta’lim muassasalariga yangi ta’lim shakli va usullarini samarali joriy etish maqsadida “Qishloq xo‘jaligida zamonaviy ta’lim shakllarini sinash va joriy etish markazi”ni tashkil etish va uni moliyalashtirish asosida faoliyatini yo‘lga qo‘yish taklif etilgan[9]. Fikrimizcha, qishloq xo‘jaligida tayyorlanayotgan kadrlar zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishi uchun yangi ta’lim shakllari va usullarini samarali joriy etish asosida mehnat bozorida raqabatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish mumkin bo‘ladi. Ushbu ishlarni amalga oshirishda ta’lim muassasalariga xususiy sektorni jalb etish orqali ilm-fan ishlab chifqarish integratsiyasini ta’minlash, ilmiy tadqiqot ishlarini jadallashtirish, moliyaviy resurslarni jalb etish orqali sohani jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot obyekti sifatida agrar soha uchun kadrlar tayyorlayotgan oliy ta’lim muassasalari olingan. Tadqiqotning predmeti bo‘lib, agrar oliy ta’lim muassasalarini boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish va takomillashtirish hamda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish jarayonlari hisoblanadi. Tadqiqotda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, ta’lim tizimini rivojlantirish yo‘llarini tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullari qo‘llanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini zamonaviy menejment usullari yordamida takomillashtirish, boshqaruvda samaradorlikn ta’minlash, oliy ta’lim muassasi boshqaruv faoliyati xodimlarining yuqori kompetensiyaviy darajasini ta’minlash va ta’lim sifatini oshirish kabi yo‘nalishlarda izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlardan kelib chiqib, agrar oliy ta’lim muassasalariga mehnat bozori talablariga javob bera oladigan malakali kadrlar tayyorlash va boshqaruv tizimini samarali olib borish, rahbar va pedagog kadrlar mahoratini oshirish vazifasini qo‘yadi. Agrar sohani taraqqiy etishi, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini bilan ta’minlash, hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish, sifat va samaradorlikni oshirish, fermer xo‘jaliklari, tomorqa yer egalari, klasterlar faoliyatining samaradorligini oshirishda oliy va o‘rta ma’lumotli kadrlarning o‘rni alohida ekanligini ko‘rsatib beradi. Shu bois, agrar soha uchun malakali kadrlar tayyorlayotgan ta’lim muassasalari oldiga bir qator aniq strategik maqsadlarni belgilab olgan holda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

Agrar sohada kadrlar tayyorlayotgan ta’lim muassasalari boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish orqali mehnat bozori talabiga javob beradigan kadrlarni tayyorlash hamda xalqaro standartlarga mos ravishda vazifalarni belgilash zarur bo‘ladi. Shuningdek, agrar sohani o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalari quyidagi rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilab olish mumkin:

- kadrlarning salohiyatini shakllantirishda universitet reytingi va professor-o‘qituvchilar ilmiy salohiyatini optimal darajada oshirish;
- ishlab chiqarish korxonalari va kadrlar o‘rtasidagi integratsiya jarayonidagi muammolarni bartaraf etish, bunda, asosan, mehnat bozorining qat’iy belgilangan talablarini chuqur tahlil qilish;

- kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasasini boshqarishda zamonaviy menejment usullarini qo'llash;
- kadrlar salohiyatini rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun, eng avvalo, agrar ta'lim tizimini SWOT-tahlilini amalga oshirish lozim bo'ladi.

Kadrlar tayyorlashda ularning salohiyatiga turli xil omillar ta'sir etish darajasiga ko'ra, ichki va tashqi omillarga, shuningdek, olinadigan natijaga ko'ra, ijobiy va salbiy omillarga bo'linadi. Agrar oliy ta'lim muassasalarida ichida tayanch hisoblangan Toshkent davlat agrar universitetida malakali kadrlar tizimini samarali yo'lga qo'yish, rivojlantirish va boshqarishning SWOT-tahlili quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval). O'rganishlar natijasida tizimda mavjud imkoniyatlar va unga ta'sir etuvchi salbiy tomonlar keng yoritib o'tilib tahlil qilindi. Oliy ta'lim muassasasining ijobiy va salbiy tomonlari shuni ko'rsatmoqdaki, universitetda hali qilinishi kerak bo'lgan ishlar mavjudligi, agrar soha uchun tayanch OTM hisoblanishi, tarixan o'zining qadriyatlariga ega ekanligi, shuningdek, respublikamizda o'z nufuzini oshirish borasida yetarlicha chora-tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatlari mavjud.

1-jadval: Toshkent davlat agrar universitetida malakali kadrlar tayyorlashni rivojlantirish va boshqarishning SWOT-tahlili

| | ICHKI | TASHQI |
|---|---|---|
| | S KUCHLI TOMONLAR | O IMKONIYATLAR |
| IJOBIY | • agrar ta'lim tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligi, rivojlantirish islohotlarini izchil davom ettirilayotganligi va huquqiy asoslarining yaratilganligi;<br>• agrar ta'lim muassasalarini faoliyatini yuritishda ularni boshqarishda davlat aralashuvini bosqichma-bosqich kamayayotganligi;<br>• agrar sohaga muntazam ravishda oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarining kadrlariga ehtiyojning mavjudligi;<br>• ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llashning imkoniyatini mavjudligini;<br>• agrar soha aholining bandligini va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi hamda bu orqali malakali kadrlarga ehtiyojning mavjudligi. | • yoshlarni oliy ta'limga qamrov darajasini oshirish maqsadida qabul kvotalarini oshirib borilayotganligi;<br>• agrar ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berilib, ta'lim shakllari, usullari, ta'lim berish davomiyligini va boshqa bir qator imkoniyatlarning kengayotganligi;<br>• agrar oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda qabul chegarasidan kam ball to'plagan abituriyentlar uchun oshirilgan to'lov-kontrakt miqdorini ikki baravarga kamaytirilganligi;<br>• agrar ta'lim tizimiga davlat tomonidan e'tibor qaratilib, qo'llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar, dasturlar qabul qilinayotganligi;<br>• mahalliy va xalqaro moliya tashkilotlarining mablag'larini jalb etgan holda, ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnika ta'minotini yaxshilayotganligi. |
| | W ZAIF TOMONLAR | T TAHDIDLAR |
| SALBIY | • moddiy-texnika bazasining eskirganligi;<br>• agrar ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun zaruriy iqtisodiy mexanizmlarning takomillashmaganligi;<br>• ta'lim muassasalarini zamonaviy menejment tamoyillari asosida boshqarishning aniq mexanizmlarining mavjud emasligini;<br>• mehnat bozoriga kadrlar tayyorlashda ish beruvchi tashkilotlar bilan ta'lim muassasalarini uzviy integratsiyasi ta'minlanmaganligi;<br>• ta'lim muassasalari va asosiy ish beruvchilar o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarining takomillashmaganligi;<br>• agrar ta'lim muassasalari abituriyentlarni o'qishga jalb etishning jozibador usullaridan foydalanmasligini;<br>• agrar ta'lim muassasalari tomonidan kadrlar tayyorlashda marketing usullaridan foydalanish darajasining pastligi. | • bugungi kun yoshlari asosan iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya, pedagogika, xorijiy tillar yo'nalishlarida o'qishga qiziqish darajasining oshib borayotganligi;<br>• ta'lim berish jarayonida laboratoriya jizohlarining yangilanmaganligi;<br>• mehnat bozorida agrar ta'lim tizimida tayyorlanayotgan kadrlarga talabning kamayib borishi;<br>• yuqori malakali kadrlar tayyorlashda nodavlat va xususiy oliy ta'lim tashkilotlarining ko'payib borayotganligi;<br>• akademik va moliyaviy mustaqillik berilgan ta'lim muassasalarida ham agrar soha bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilayotganligi;<br>• barcha sohalarda boshqaruv jarayoni raqamlashtirish asosida tashkil etilayotganligi bois kadrlarga talabning kamayib borishi. |

Manba: Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlangan.

SWOT-tahlili nafaqat agrar oliy ta'lim muassasalarining faoliyatidagi ichki - tashqi va ijobiy tomonlarini shuningdek, salbiy omillar kuchli hamda zaif tomonlari yoki imkoniyat va tahdidlarini ko'rsatadi, balki sohada o'zaro raqobatlasha olish imkoni to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash hamda boshqarish tizimi orqali erishish mumkin bo'lgan vazifalarni hal etishda ham muhim rol o'ynaydi.

Agrar soha uchun kadrlar tayyorlayotgan oliy ta'lim muassasalarida malakali kadrlar tayyorlashda asosiy ta'sir etuvchi omillarni ham hisobga olish, mavjud muammolarni yaxlit bartaraf etish kerak bo'ladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari tomonidan mehnat bozoriga malakali kadrlar tayyorlash va boshqaruv faoliyatini to'g'ri tashkil etishda turli ta'sir etuvchi omillar mavjud. Barcha omillar bir biriga uzviy bog'liqligi, kadrlarga qo'yiladigan talabning aniq bajarilishi uchun ta'lim muassasalarining asosiy vazifasini ko'rsatib beradi. Ushbu ta'sir etuvchi omillarni alohida o'rganish, iqlim o'zgarishini inobatga olish, bitiruvchi kadrlarni malakali mutaxassis bo'lib shakllanishida muhim hisoblanadi. Buning uchun, oliy ta'lim muassasasida samara va samaradorlik tushunchalariga alohida yondashuv asosida boshqaruv jarayonlarini tizimli tashkil etishga ahamiyat berish zarurdir. Oliy ta'lim muassasasining boshqarish samaradorligini aniqlaydigan asosiy resurslar, boshqaruv funksiyalarining samarali mehnati, moliyaviy resurslar, bitiruvchilarni salohiyatli kadr bo'lishi, qisqa muddatda ish bilan bandligini ta'minlanishi, kreativ fikrlashi, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishligi va boshqa mezonlarga bog'liq bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasasi mehnat bozoriga raqobatbardosh malakali, inson kapitalini rivojlantirish va intellektual salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislar kadrlar tayyorlashda o'zlari belgilab olgan missiyasidagi vazifalar ijrosini belgilangan muddatlarda amalga oshirishi zarur hisoblanadi. Izchil islohatlar natijasida agrar oliy ta'lim muassasalarida yetuk mutaxassislar tayyorlash jarayoniga ta'sir ko'rsata oladigan OTM rahbar va pedagog kadrlarining o'rnini alohida ta'kidlash lozim. Bugungi kunda ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda inson kapitalini ustuvor yo'nalish sifatida belgilab olgan har bir rahbar xodim, professor-o'qituvchilar dars mashg'ulotlarini olib borishda o'quv dasturidagi belgilangan vazifalarni talabalarga yetkazib bera olishi muhim hisoblanadi. Ushbu vazifalarni oliy ta'lim muassasasida to'laqonli, sifatli amalga oshirish, zamonaviy boshqaruv usullaridan samarali foydalanish o'zining ijobiy natijasi berib, mehnat bozoriga malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval: Oliy ta'lim muassasasida qo'llaniladigan zamonaviy boshqaruv usullari

| Usul nomi | Tavsifi |
|---|---|
| **Tashkiliy-ma'muriy usuli** | – bu usul orqali oliy ta'lim muassasasi ushbu sohada faoliyatni olib borish bo'yicha qabul qilingan normativ xujjatlariga, yuqori pog'onadagi tashkilotlarning uslubiy va axborot-direktiv xujjatlariga, stragiyalar, yo'l xaritalar, chora-tadbirlar, loyihalar, dasturlar, boshqaruv organi tomonidan berilgan vazifalarga tayangan holda boshqaruvchilar boshqaruv obyektiga ta'sir o'tkazadi hamda faoliyatni amalga oshiradi. |
| **Iqtisodiy-rag'batlantirish usuli** | – bu usul orqali ta'lim sifati va o'quv jarayoni samaradorligini oshirish, OTMning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ish beruvchi tashkilotlar bilan bozor mexanizmlari asosida manfaatli hamkorlik qilish, tizimni rivojlantirish, rahbar va pedagog kadrlarni iqtisodiy tomondan qo'llab-quvvatlash qaratilgan. OTMni samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda eng maqbul variantlarni tanlab olish, xizmat ko'rsatish sohasini ilg'or yutuqlarini ko'rsatib berish, xodimlarni rag'batlantirish orqali yakunda mehnat bozoriga malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni o'z ichiga oladi. |
| **Ijtimoiy-psixologik usuli** | – ushbu usul orqali oliy ta'lim muassasasi ko'zlangan missiyasiga erishishda rahbar va pedagog kadrlarning barkamol shaxs sifatida rivojlantirish, boshqaruvda ularni ishtirokini ta'minlash, jamoaning ijtimoiy rivojlanishi, ma'naviy rag'batlantirish, tashkilotda sog'lom raqobat muhitini yaratish orqali yuksak salohiyatga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashga asoslangan. Professor-o'qituvchilar muntazam ravishda o'zini rivojlantirishi va shu asosda bo'lajak kadrlarga ta'lim olayotgan mutaxassisliklari bo'yicha yetuk kadr bo'lishiga, sohani rivojlantirishga oid qarorlar qabul qila oladigan bo'lib shakllanishiga zamin yaratadi. |

Manba: Muallif ishlanmasi.

Shu jihatdan kelib chiqib, ta'lim jarayonlarini sifatini oshirish va ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun moddiy-texnik ta'minot yuqori darajada bo'lishi zarurdir. Shu bois, mehnat bozoriga raqobatbardosh malakali kadrlar tayyorlashda oliy ta'lim muassasasi rahbar va pedagog kadrlari yuqorida sanab o'tilgan zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalangan holda ish jarayonlari va o'quv mashg'ulotlarini olib borishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, faoliyatning ichki xususiyati uning ruhiy tartibga solish jarayonlari va mexanizmlarini, uning tuzilishi va mazmunini, uni amalga oshirishning operativ vositalarini tavsiflashni o'z ichiga oladi. Talabalarda kelgusi faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari-bu maqsad, motivatsiya, axborot asosi, qaror qabul qilish, reja, dastur, subyektning individual psixologik xususiyatlari va jarayonlar (kognitiv, hissiy, irodali), shuningdek, nazorat qilish mexanizmlari kabi psixologik shakllanishlar, tuzatish, ixtiyoriy tartibga solish kabi



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

muhim vazifalarni shakllantirish zarur hisoblanadi. Har bir shaxs o‘z faoliyatini tizimli amalga oshirishining asosiy vositasi tinimsiz mehnat, zamonaviy bilimlarni egallash va uni amaliyotga joriy etish hamda to‘xtovsiz harakatlar majmuidir.

Zamonaviy menejment va ilm-fan yutuqlaridan foydalanishga asoslangan harakatlar tizimining kundalik qo‘llanilishi tashkilot faoliyati samaradorligiga sezilarli tarzda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, ta’lim tashkilotlarida ham boshqaruvni zamonaviy usullar yordamida olib borilishi hamda malakali kadrlar tayyorlashda quyidagilar alohida ahamiyat kasb etadi:

- OTM faoliyatini prognoz qilish va rejalashtirish, rivojlanish strategiyalarni ishlab chiqish;
- Yangi ta’lim yo‘nalishlari tashkil etish va mavjudlarini optimallashtirish;
- Malakali kadrlarni tayyorlash orqali sifat standartlariga muvofiq mahsulot ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish;
- Kadrlarni mehnat bozorida joy-joyiga oqilona ko‘yish, vazifalarni taqsimlash, ish beruvchilar bilan muntazam hamkorlik qilish;
- Ta’limga oid ma’lumotlardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- Har tomonlama nazorat, tahlil, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishni ta’minlash;
- OTM rahbar va pedagog xodimlarining malakasi va mahoratini oshirib borish va boshqalar.

Qishloq xo‘jaligi vazirligi tasarrufida faoliyat olib borayotgan hamda respublikamizda agrar soha uchun kadrlar tayyorlashni o‘z zimmasiga olgan oliy ta’lim muassasalarida 26 mingdan ortiq talabalar tahsil olayotganligi ko‘rishimiz mumkin (3-jadval). Ushbu talabalarni bugungi kunda agrar sohada amalga oshirilayotgan izchil islohotlarni samarali joriy etish, mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda faoliyat olib borayotgan qishloq xo‘jaligini subyektlariga oliy ma’lumotli kadrlarni o‘z sohasining yetuk mutaxassislarini tarbiyalashda o‘zlarining yuksak bilim va tajribalarini 1200 dan ortiq professor-o‘qituvchilar faoliyat ko‘rsatmoqda.

3-jadval: Qishloq xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalarining faoliyati to‘g‘risida MA’LUMOT

| № | Amalga oshirilgan chora-tadbirlar nomi | Jami | | | Toshkent davlat agrar universiteti | | Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti | | Qoraqalpog‘is-ton qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti | | Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti | | Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2020-yil | 2022-yil | farqi, +/- | 2020-yil | 2022-yil | 2020-yil | 2022-yil | 2020-yil | 2022-yil | 2020-yil | 2022-yil | 2020-yil | 2022-yil |
| 1 | Ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari soni | 98 | 131 | 33 | 58 | 81 | 16 | 41 | 31 | 51 | 43 | 61 | 19 | 34 |
| | shundan: ta’lim yo‘nalishlari soni | 59 | 76 | 17 | 25 | 44 | 16 | 19 | 21 | 28 | 20 | 34 | 19 | 24 |
| | magistratura mutaxassisliklari soni | 39 | 55 | 16 | 33 | 37 | 11 | 22 | 10 | 23 | 15 | 27 | 0 | 10 |
| 2 | OTMda faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar soni | 1154 | 1280 | 126 | 565 | 571 | 52 | 81 | 161 | 182 | 285 | 297 | 91 | 149 |
| 3 | Oliy ta’lim muasssasalarida talabalar soni | 19660 | 26503 | 6843 | 8992 | 10636 | 383 | 1491 | 2726 | 3452 | 5374 | 7694 | 2185 | 3230 |
| | Shundan, bakalavrlar soni | 17153 | 27784 | 10631 | 8382 | 13207 | 313 | 1322 | 2570 | 3257 | 3703 | 7366 | 2185 | 2632 |
| | Shundan, magistrlar soni | 1055 | 1182 | 127 | 610 | 397 | 70 | 169 | 156 | 195 | 219 | 315 | 0 | 106 |
| 4 | OTMning ilmiy salohiyati | 43,3 | 46,2 | 3,0 | 62,6 | 66,2 | 45 | 47 | 39,2 | 42,7 | 43,8 | 45,1 | 25,8 | 30,2 |
| 5 | OTMda bitiruvchilar soni | 3055 | 2489 | -566 | 1385 | 972 | | | 569 | 482 | 1101 | 702 | | 333 |
| 6 | OTMlarda talabalarning ishga joylashishi ko‘rsatkichlari | 83,7 | 86,8 | 3,1 | 87 | 91 | | | 79 | 84 | 85 | 87 | | 85,1 |

Manba: Oliy ta’lim muassasalari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga, mazkur oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati o'rtacha 46,2% ni tashkil etadi. Respublikamiz ta'lim tizimidagi amalga oshirilayotgan islohatlarning tub zaminida mehnat bozoriga kirib kelayotgan yangi ish va xizmat turlarini samarali ijro eta oladigan kadrlar bajarishini inobatga olib, 2020-yilga nisbatan 2022-yilda agrar ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari soni 98 tadan 131 taga yetganini yoki 133% ga ortganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa, o'z navbatida, agrar ta'lim tizimida ham bir qator ijobiy natijalar amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish, qishloq xo'jaligida muammoli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish asosida sohani rivojiga o'z hissasini qo'shish maqsadida bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lgan bitiruvchi kadrlar tayyorlash ko'rsatkichi ham 2020-yilga nisbatan 2022-yilda 134 foizga ko'payib, qishloq xo'jaligida sifatli mahsulot yetishtirish, eksportni kengaytirish, soha oldidagi muhim vazifalarni amalga oshirish uchun mehnat bozoriga malakali kadrlar tayyorlanmoqda.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va ustuvor vazifalarning belgilanishi natijasida zamonaviy dunyo qarashga ega kadrlarga bo'lgan talabning ortishi natijasida OTMlar ham ta'lim tizimini jahon standartlari asosida o'tishga moslashtirdi. O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning milliy modeli murakkab ijtimoiy sohada jahonda erishilgan barcha yutuqlarni to'liq o'zida qamrab olgan holda amalga oshirish zarur hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarda ta'lim tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Agrar ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirishda tashkiliy-huquqiy jihatlariga alohida to'xtalib o'tish lozim. Bunda, ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari va uzoq muddatga mo'ljallangan aniq strategiyalari belgilab olishni taqozo etadi. Shuningdek, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlardan kelib chiqib, ko'zlangan maqsadga erishishda asosiy vazifalarni belgilab olish zarur.

Quyidagi vazifalar agrar ta'lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashning asosiy vazifalarini hal qilish uchun ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshirilishi lozim hisoblanadi:

1) Malakali kadrlar tayyorlashning aniq maqsadini belgilash:

- agrar ta'lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashning aniq vazifalari va maqsadlarini belgilash;
- jahon andozalari doirasida tizimni rivojlantirishning uzoq va qisqa muddatli strategiyasini ishlab chiqish;
- malakali kadrlar tayyorlashda ta'sir etuvchi omillarni bashorat qilish va prognozlash.

2) Ta'limning uzviyligini boshqarish:

- boshqaruvda sohani rivojlantirishning aniq maqsadga erishishini nazorat va monitoring qilish;
- boshqaruv jarayonida erishilgan yutuqlarni baholab borish;
- oldingi va keyingi boshqaruv natijadorligini baholash;
- rahbar tomonidan tezkor qaror qabul qilish va rejalashtirishning aniqligining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- ilmga asoslangan holda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish hamda muntazam ravishda xorijiy tajribalarni o'rganish;
- o'quv jarayoni va ta'lim sifatini oshirishda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni quyi bo'g'inga o'tkazish.

3) Malakali kadrlar tayyorlashda mintaqalarning iqlim sharoitini baholash:

- respublika hududlarini iqlim sharoitini hisobga olgan holda o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqish;
- mintaqalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda eksport va import ko'rsatkichlarini baholash;
- raqamli texnologiyalar asosida masofaviy va dual ta'lim berish usullarini joriy etish;
- hududlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish ixtisoslashuvini inobatga olish hamda hududlarga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yilning 7-iyuldagi "Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-216-sonli qarori. https://lex.uz/
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyuldagi PQ-4795-sonli "Agrar ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. https://lex.uz/
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-dekabrdagi 788-sonli "Agrar ta'lim tizimining 2030-yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. https://lex.uz/
4. N.Kononets. Experience in implementing resource-based learning in agrarian college of management and law poltava state agrarian academy.// Turkish Online Journal of Distance Education-TOJDE April 2015 ISSN 1302-6488 Volume: 16 Number: 2 Article 12.: 13 p.
5. Steven Engler and Michael M. Kretzer. Agriculture and Education: Agricultural Education as an Adaptation to Food Insecurity in Malawi.// Universal Journal of Agricultural Research 2(6): 224-231, 2014 ttp://www.hrpub.org DOI: 10.13189/ujar.2014.020607.: 9 p.
6. O.S.Qahhorov. Ta'lim tizimida iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida).//Avtoreferat. 08.00.13 – Menejment ixtisosligi. Toshkent-2017.: 52-bet.
7. T.Teshabayev. Oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish.// Avtoreferat. 08.00.13 – Menejment ixtisosligi. Toshkent-2019.: 83-bet.
8. A.Ochilov. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish.// Avtoreferat. 08.00.13 – Menejment ixtisosligi. Toshkent-2018.: 76-bet.
9. J.Kucharov. Qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirish sharoitida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish yo'llari.// Avtoreferat. 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti ixtisosligi. Toshkent-2021.: 52-bet.
10. Toshboev A.J., Siddikov Z.T., Boltaev N.Sh. Prospects for the training development of qualified personnel in the agricultural education system: a case study from Tashkent State Agrarian University, Uzbekistan. // E3S Web of Conferences Volume 389 (2023) Ural Environmental Science Forum "Sustainable Development of Industrial Region" (UESF-2023) Chelyabinsk, Russia, April 25-28, 2023.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.